



SOLIQ NAZORATI – BUDJET DAROMADLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

TAX CONTROL AS AN IMPORTANT FACTOR IN ENSURING THE STABILITY OF BUDGET REVENUES

¹**Abduraxmonov Zohid Akbar o'g'li**

¹*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

Annotatsiya

Uzb. - Davlat budjetning asosiy daromad manbai soliqlar hisoblanadi. Shu boisdan davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda soliq nazoratini samarali tashkil etilishi muhimdir. Mazkur maqolada soliq nazoratining mohiyati, asosiy shakllari va ahamiyatiga oid ilmiy-nazariy qarashlar o'rganiladi. Shuningdek, soliq nazorati qoidalarini qo'llash orqali budjet daromadlarini shakllantirish amaliyoti tadqiq etiladi hamda soliq nazoratini samarali ta'minlash bo'yicha takliflar va xulosalar keltirib o'tiladi.

Eng. - The main source of income of the state budget is taxes. Therefore, it is important to effectively organize tax control in the formation of state budget revenues. This article examines scientific and theoretical views on the essence, main forms and significance of tax control. It also studies the practice of forming budget revenues through the application of tax control rules, and makes proposals and conclusions on ensuring effective tax control.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *davlat budjeti, raqamli iqtisodiyot, soliq nazorati, soliq monitoringi, soliq auditi, soliq agenti.*

❖ *state budget, digital economy, tax control, tax monitoring, tax audit, tax agent.*

Kirish.

Budjet siyosatini ishlab chiqish jarayoni va hayotga tatbiq etishda, uning jamiyat oldida turgan vazifalarni bajarish shartlarini ta'minlash, iqtisodiy manfaatlarga ta'sir ko'rsatadigan asosiy qurol sifatida ham namoyon bo'ladi. Davlat budjetining shakllantirish va samarali ijrosini ta'minlash har bir mamlakat moliya tizimining dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Davlat budjetining to'g'ri va oqilona tashkil etilishi, nafaqat, mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi, balki xo'jalik subyektlarining iqtisodiy faoliyatiga har tomonlama ta'sir etish orqali mamlakatning iqtisodiy yuksalishiga olib keladi. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish jarayonida soliq nazoratini oqilona

tashkil etish va samarali yuritish muhim masalalardan hisoblanadi. Ushbu masala mamlakatdagi amalga oshirilayotgan soliq siyosati bilan chambarchas bog'liqdir.

Mamlakatimizda moliya tizimi, xususan davlat budjetining barqarorligini oshirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha ta'kidlab o'tdilar, "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir" [1]. Davlat budjeti barqarorligini ta'minlashda

soliq nazoratini samarali tashkil etish muhim o'rin tutadi.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni erkinlashtirish, kichik biznesni rivojlantirish, xususiylashtirish jarayonini tezlashtirish, tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar berish, ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, ammo shu bilan bir vaqtda budget daromadlarining kamayishiga yo'l qo'ymaslik iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor vazifalari hisoblanadi.

Soliq nazorati davlat moliyaviy nazorati tizimining eng muhim vositalaridan biridir. Hozirgi iqtisodiy sharoitda davlat budjeti daromadlari tizimida soliq tushumlari, shubhasiz, ustunlik qilayotgani, bundan tashqari, barcha turdagi davlat budjeti daromadlari to'liq va o'z vaqtida tushayotganligini nazorat qilish zarurati yuzaga kelganligi sababli soliq nazoratining butun tizimini takomillashtirish zarurati tug'iladi [7]. Ayni paytda barcha e'tibor raqamli iqtisodiyotda soliq nazoratini amalga oshirishga qaratilmoqda. Chunki, hozirgi vaqtda tobora ko'proq raqamli texnologiyalar shakllanmoqda, ular ko'plab o'zgarishlarni, shu jumladan ularni boshqarishni ham olib keladi. Raqamlashtirish sharoitida ushbu innovatsiyalarning barcha afzalliklaridan, jumladan, soliqqa tortish sohasida foydalanish muhim ahamiyatga ega, bu esa soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi aloqani yaxshilashga, soliq nazorati jarayonini avtomatlashtirilgan va samaraliroq qilishga yordam beradi.

Shu boisdan, soliq nazorati sohasidagi o'zgarishlarning iqtisodiyotda qanchalik ijobiy siljishlarni ta'minlayotganini tahlil qilish, ulardan tegishli xulosalar chiqarish, rivojlanishga to'siq bo'luvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini qidirishdir. Bu esa, o'z navbatida, bu sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada budget daromadlari barqarorligini ta'minlashda soliq nazoratining ahamiyatini tadqiq etishda analiz, sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash usullari qo'llanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Soliq nazoratining mohiyati va amalga oshirish shakllariga bag'ishlab mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlar o'ziga xos yondoshuvlarga egadir. Xususan, G.X. Aliyevning fikriga ko'ra, soliq nazorati maxsus vakolatli davlat organlari faoliyatining alohida turi bo'lib, buning natijasida soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajarilishi, budget tizimiga va davlatning budgetdan tashqari davlat jamg'armalariga majburiy soliq ajratmalarining o'z vaqtida tushishi ta'minlanadi [2].

A.B. Брызгалин fikricha, soliq nazorati soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini hamda budgetga soliqlarning to'g'ri hisoblanishi, to'liqligi va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlaydigan vakolatli organlarni boshqarish uchun qonun hujjatlarida belgilangan usullari majmuidir [8].

O.B. Врублевская, M.B. Романовскийlarning fikriga ko'ra, soliq nazorati soliq tushumlari bo'yicha davlat hokimiyatining barcha darajalarida pul jamg'armalarini shakllantirish bo'yicha harakatlarning qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va samaradorligini tekshirish, budgetga soliq tushumlarini ko'paytirish zaxiralarini aniqlash va soliq intizomini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar tizimi tushuniladi [9].

A.B. Лобанов soliq nazorati, shubhasiz, davlatning iqtisodiy sohasini rivojlantirish uchun zarur vosita ekanligini ta'kidlaydi. Ma'lumki, budgetga soliq tushumlari mamlakat daromadlarining asosiy qismini tashkil qiladi. Shu munosabat bilan soliq nazorati instituti umuman iqtisodiy tizimni

shakllantirishda muhim rol o'ynaydi deb biladi [5].

Mahalliy iqtisodchilardan Mamajonovning fikricha, soliq stavkalarini pasaytirgan holda soliq tushumlarini oshirishda soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirishda soliq madaniyatini oshirish, soliq normativlarini soddalashtirish, soliq ma'murchiligi jarayonlarini avtomatlashtirilishini takomillashtirish yaxshi natija berishi mumkin [6].

X.Jamalovning fikriga ko'ra, soliq munosabatlari ishtirokchilari xulq-atvorining o'zaro ta'siri sharoitida soliq nazoratini tashkil etish va uslubiy ta'minlashning konseptual jihatdan yangi yondashuvlari faol tadqiq etgan [3].

F.Isayev soliq nazoratining kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi va soliq auditi kabi turlari allaqachon amaliyotga qo'llanibkelinmoqda va ular bugun soliq to'lovchi tomonidan soliq majburiyatlarining bajarish holatiga qarab amalga oshirib kelinmoqda. Soliq to'lovchilar soliq xavfi darajasini aniqlash mezonlari va soliq to'lovchilarni toifalarga ajratish tartibiga ko'ra soliq xavfi darajasiga qarab past, o'rta va yuqori xavfli toifalarga ajratishni ma'qullagan [4].

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Respublikamizda soliqlardan iqtisodiy rivojlanishda foydalanish yo'nalishlaridan biri bu soliq nazoratini samarali tashkil etishdan iborat. So'nggi yillarda soliq nazoratini va moliyaviy jazolarni erkinlashtirish orqali tadbirkorlik subyektlariga katta imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining V bo'limi soliq nazoratiga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra vakolatli organlarning soliq to'lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilishga doir faoliyati soliq nazoratidir [10].

Soliq organlari soliq nazoratini:

- 1) soliq tekshiruvlari;
- 2) soliq monitoringi shaklida amalga oshiradi.

Bojxona organlari tovarlarning O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tilishi munosabati bilan to'lanishi lozim bo'lgan soliqlarga nisbatan o'z vakolatlari doirasida ushbu Kodeksga va bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq soliq nazoratini amalga oshiradi.

Soliq tekshiruvlari soliq to'lovchilar, yig'implarni to'lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi.

Soliq tekshiruvi soliq to'lovchi to'g'risida soliq organlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Soliq organlari soliq tekshiruvlarining quyidagi turlarini o'tkazadi:

- 1) kameral soliq tekshiruvi;
- 2) sayyor soliq tekshiruvi;
- 3) soliq auditi.

Kameral soliq tekshiruvi soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini, moliyaviy hisobotni, shuningdek soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida soliq organida mavjud bo'lgan boshqa hujjatlar hamda ma'lumotlarni tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan o'tkaziladi.

Soliq to'lovchilarning soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish hamda to'lash sohasidagi ayrim majburiyatlarini, shuningdek soliq to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarilishini tekshirish sayyor soliq tekshiruvidir.

Muayyan davr uchun soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish hamda to'lashning to'g'riligini tekshirish soliq auditidir. Soliq auditi soliq to'lovchilarning (soliq agentlarining) yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga mansub soliq to'lovchiga (soliq agentiga) nisbatan o'tkaziladi.

Tadbirkorlik subyektlari yuqori barqarorlik reytingining «AAA» toifasidagi tadbirkorlik subyektlariga nisbatan (bundan davlat korxonalari hamda ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar mustasno) soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi (bundan jinoiy ishlar doirasida o'tkaziladigan tekshiruvlar mustasno).

Ma'lumki, 2024-yilda O'zbekiston iqtisodiyoti jadal rivojlanib, yalpi ichki mahsulot (YAIM) 6,5 foizga o'sdi. Ushbu makroiqtisodiy barqarorlik davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda zamin yaratdi. Natijada, 2024-yilda soliq siyosatini hamda soliq ma'murchiligini yaxshilash evaziga davlat budjetiga tasdiqlangan prognoz 196,5 trln. so'm o'rniga 199,5 trln. so'm tushishiga erishildi. Bu esa 2023-yilga nisbatan 33,5 trln. so'm yoki 20,2 foizga ko'p soliq tushumlari ta'minlandi.

Davlat budjeti daromadlari 2024-yil yakuni bilan 274 423,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. 2023-yilga nisbatan daromadlar 42 703,2 mlrd. so'mga yoki 18,4 foizga oshgan.

Soliq qo'mitasi tomonidan 199,5 trln. so'm (jami tushumga nisbatan 72,7 foiz, 2023-yilga nisbatan 120,2 foiz);

Bojxona qo'mitasi tomonidan 63,0 trln. so'm (jami tushumga nisbatan 23 foiz, 2023-yilga nisbatan 108 foiz). Shundan QQS bo'yicha o'zaro hisobga olingan summa 6,3 trln. so'mni tashkil qiladi.

Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlar 11,9 trln. so'mni (jami tushumga

nisbatan 4,4 foiz, 2023-yilga nisbatan 160,5 foiz) tashkil qildi. Boshqa daromadlar tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qaytarish (qoplab berish), fuqarolarga xarid summasidan 1 foiz ("kesh-bek") qaytarish, shuningdek dividendlar va soliqsiz tushumlar kiradi.

2024-yil va 2023-yilni solishtirganda, Davlat budjeti daromadlari tuzilmasida resurs soliqlar ulushi deyarli o'zgarishsiz qolgan. Sezilarli o'zgarishlardan, bilvosita soliqlar ulushi 3,8 foizga kamaygan bo'lsa, bevosita soliqlar ulushi 1,6 foizga oshgan.

Bevosita soliqlar bo'yicha tushumlar 2023-yil bilan solishtirganda 17,7 trln. so'mga yoki 24,3 foizga oshib, 90,8 trln. so'mni tashkil etgan. Foyda solig'i – 52,6 trln. so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 11,8 trln. so'mga yoki 29,0 foizga ko'p bo'lgan.

Foyda solig'i bo'yicha tushumlar o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan: soliq siyosatidagi o'zgarishlar hisobiga 8,8 trln. so'm, jumladan:

iqtisodiy o'sish va soliq to'lovchilar moliyaviy holati yaxshilanishi hisobiga 1,7 trln. so'm;

jahon bozorida narxlarning ijobiy o'zgarishi hisobiga 7,1 trln. so'm;

soliq ma'murchiligini yaxshilash hisobiga 3 trln. so'm, jumladan:

soliq hisobotlarini qayta ishlash hisobiga 2,7 trln. so'm;

soliq tekshiruvlaridan 229 mlrd. so'm va joriy qilingan yangi raqamli instrumentlar.

1-jadval

Davlat budjeti daromadlarining ijrosi, mlrd. so'm [11]

Daromadlar	2023 y.	2024 y.	Farq
JAMI	231,720.7	274,423.9	42,703.2
<i>Bevosita soliqlar</i>	73,103.6	90,833.0	17,729.4
<i>Foyda solig'i</i>	40,778.9	52,619.7	11,840.8
<i>Aylanmadan olinadigan soliq</i>	2,407.3	2,829.5	422.2
<i>Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i</i>	29,917.4	35,383.9	5,466.5
<i>Bilvosita soliqlar</i>	83,325.7	88,342.1	5,016.4
<i>Qo'shilgan qiymat solig'i</i>	57,885.3	59,281.2	1,395.9
<i>Aksiz solig'i</i>	15,834.3	19,059.9	3,225.6

Bojxona boji	9,606.1	10,001.0	394.9
Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	28,079.5	36,362.6	8,283.1
Mol-mulk solig'i	5,097.7	6,804.7	1,707.0
Yer solig'i	6,890.1	8,215.6	1,325.5
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	15,300.3	20,169.6	4,869.3
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	791.4	1,172.7	381.3
Boshqa daromadlar	47,211.9	58,886.2	11,674.3

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i – 35,4 trln. so'mni tashkil qilgan. 2023- yilga nisbatan 5,5 trln. so'mga yoki 18,3 foizga oshgan, shundan, qat'iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlar 506,7 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlar o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan:

2023-yilga nisbatan tushumlar 5,5 trln. so'm oshgan (jami soliq tushumlaridagi ulushi 17,7 foiz) bo'lsada YaIMdagi ulushi 2,43 foizni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan (-0,05 punktga) quyidagi omillarning salbiy ta'siri hisobiga kamaygan:

soliq imtiyozlari hisobiga 1,6 trln. so'm (jumladan, deklaratsiya bo'yicha 160 mlrd. so'm);

soliq nazorat tadbirlari o'tkazish vakolati cheklanganligi hisobiga 521 mlrd. so'm yo'qotilgan.

Aylanmadan olinadigan soliq – 2,8 trln. so'mni tashkil etgan va 2023-yilga nisbatan 422,2 mlrd. so'mga yoki 17,5 foizga oshgan.

Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha tushumlar o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan:

2023-yilga nisbatan tushumlar 422,3 mlrd. so'm oshgan (jami soliq tushumlaridagi ulushi 1,4 foiz) bo'lsada YaIMdagi ulushi 0,19 foizni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan (-0,01 punktga) quyidagi omillarning salbiy ta'siri hisobiga kamaygan:

soliq imtiyozlari hisobiga 232 mlrd. so'm;

soliq nazorat tadbirlari o'tkazish vakolati cheklanganligi hisobiga 961 mlrd. so'm;

korxonalarda tovar aylanmalarining qisqarishi, ayrim korxonalar faoliyatini

to'xtatganligi hamda korxonalarning QQS to'lovchisiga aylanishi hisobiga 365 mlrd. so'm yo'qotilgan.

Bilvosita soliqlar bo'yicha tushumlar 2023-yil bilan solishtirganda 5,0 trln. so'mga yoki 6,0 foizga oshib, 88,3 trln. so'mni tashkil etgan. Jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i – 59,3 trln. so'mni tashkil qilgan, bu 2023-yilga nisbatan 1,4 trln. so'mga yoki 2,4 foizga ko'pdir. Hisobot davrida QQS yalpi tushumlari (o'zaro hisobga olingan summa bilan birgalikda) 88,6 trln. so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 11,4 foizga oshgan. Soliq organlari tomonidan 39,6 trln. so'm (2023-yilga nisbatan 16,4 foizga ko'p), bojxona organlari tomonidan 49,0 trln. so'm QQS bo'yicha tushumlar undirilishi ta'minlangan.

QQS bo'yicha tushumlar o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan:

2023-yilga nisbatan Soliq qo'mitasi tomonidan undirilgan tushumlar 5,6 trln. so'm oshgan bo'lsada YaIMdagi ulushi 2,72 foizni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan (-0,1 punktga) quyidagi omillarning salbiy ta'siri hisobiga kamaygan: soliq to'lovchilar tomonidan o'tgan yilning mos davriga nisbatan import hajmi oshib, zaxetga olingan QQS ko'payishi natijasida 6,5 trln. so'm, soliq nazorat tadbirlari o'tkazish vakolati cheklanganligi hisobiga 2,3 trln. so'm; soliq imtiyozlari hisobiga 178 mlrd. so'm yo'qotilgan.

Aksiz solig'i – 19,1 trln. so'mni tashkil etgan, 2023-yilgi tushumlarga nisbatan 3,2 trln. so'mga yoki 20,4 foizga oshgan.

Bojxona bojlari bo'yicha tushumlar – 10,0 trln. so'mni tashkil etgan yoki 2023-yil bilan solishtirganda 394,8 mlrd. so'mga yoki 4,1 foizga oshgan. Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i – 36,4 trln. so'mni tashkil etib, 2023-

yilga nisbatan 8,3 trln. soʻmga yoki 29,5 foizga oshgan.

Hududlar kesimida tushumlarda eng yuqori oʻsish surʼatlari Toshkent shahrida (26,7 foiz), Sirdaryo (14,6 foiz), Toshkent (22,9 foiz), Xorazm (19,5 foiz) va Samarqand (17,7 foiz) viloyatlarida qayd etildi.

2024-yilda sohalarga birlashtirilgan soliq inspektorlari tomonidan soliq hisobotlarini tahlil qilish va tafovutlarni bartaraf etish hisobiga 486,3 mlrd. soʻm qoʻshimcha soliq hisoblanib shundan 418,7 mlrd. soʻm undirildi.

Shu bilan birga 64,5 mingta vaqtincha moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan tadbirkorlik subyektlari bilan alohida ishlab, muammolarini hal etilishida yordam berilishi natijasida ularning faoliyati qayta tiklandi, 129,3 mingta yangi dehqon xoʻjaligi roʻyxatdan oʻtkazildi, 8,7 mingta oʻzini oʻzi band qilganlar oʻz faoliyatini kengaytirib YTTga, 947 nafar YTTning faoliyati esa yuridik shaxs sifatida yiriklashtirildi.

Bugungi kunda aholi va biznes uchun qulayliklarni oshirish, inson aralashuvini kamaytirish maqsadida soliq organlari faoliyati izchil raqamlashtirilmoqda. Soliq maʼmurchiligini yaxshilash va yashirin iqtisodiyotni jilovlashga qaratilgan yangi dasturiy mahsulotlar ishga tushirildi va ularning soni 74 taga yetdi.

Idoralararo hamkorlik doirasida oʻzaro elektron axborot almashish yoʻlga qoʻyilgan vazirlik va tashkilotlar soni 60 taga, integratsiya yoʻnalishlari soni 238 taga yetkazildi. 201 ta marketpleyslar roʻyxatga olindi. Shuningdek, sohada raqamlashtirish jarayonlarini izchil davom ettirish, soliq nazoratida "inson omili"ni cheklash hamda iqtisodiyotda xufiyona aylanma ulushini qisqartirish, qolaversa isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish maqsadida raqamli markirovkalash tizimi joriy etilgan.

"Raqamli markirovka" tizimida roʻyxatdan oʻtgan 3,5 ming subyektlar

tomonidan 2024-yilda 100 mingdan ortiq mahsulot turi "raqamli markirovka" katalogiga kiritilgan, shundan qariyb 8,2 mlrd. dona markirovkalangan tovarlar ishlab chiqarildi.

Aholiga yoʻnalishsiz taksi xizmatini koʻrsatayotgan subyektlar faoliyatini legallashtirish boʻyicha agregatorlik xizmatini koʻrsatayotgan subyektlarning axborot tizimlari 2023-yil dekabr oyidan boshlab soliq organlarining maʼlumotlar bazasiga integratsiya qilish hisobiga soliq tushumlari keskin oshdi 2025-yilning 1-yanvar holatiga ularning soni 155 taga yetdi.

Xususan, mazkur xizmat bozorining ishtirokchilari boʻlgan "YandexGo", "Uklon", "My taxi", "GeoGo", "MegaGo", "TurboTaxi" va boshqa agregatorlar orqali 497,9 mingdan ortiq (4 mingdan ortiq ayollar) fuqarolarning faoliyati oʻzini oʻzi band qilgan shaxs sifatida legallashtirilib, 2024-yilda mijozlarga 5,9 trln. soʻmlik 319,1 mln. dona chek rasmiylashtirilgan. Integratsiya jarayonlaridan keyin ushbu agregatorlar tomonidan 2024-yilda jami 156,8 mlrd. soʻm shundan, QQS 66,2 mlrd. soʻm soliqlar toʻlangan. Vaholanki, ushbu soha vakillari 2023-yilda deyarli soliq toʻlamagan.

"YandexGo" orqali 430,5 mingdan ortiq fuqarolarning faoliyati oʻzini oʻzi band qilgan shaxs sifatida legallashtirilib, 2024-yilda mijozlarga 5,2 trln. soʻmlik 271,3 mln. Dona chek rasmiylashtirilgan. "YandexGo UB" MCHJ tomonidan 2024-yil 12 oyda jami 145,2 mlrd. soʻm shundan, QQS 64 mlrd. soʻm soliqlar toʻlangan.

Raqamli texnologiyalar yechimlaridan foydalanish "biznesni soyadan olib chiqishda" katta muvaffaqiyatlarga erishish imkonini bermoqda hamda teng raqobat muhiti shakllanmoqda.

2025-yilda ham soliq tushumlarini koʻpaytirish va soliq maʼmurchiligini yaxshilash boʻyicha ishlar davom ettirilmoqda. Jumladan dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2025-yil 1-choragida davlat budjetiga belgilangan

45,5 trln. so'm o'rniga 48,2 trln. so'm tushumlar ta'minlandi yoki 2,7 trln. so'm qo'shimcha mablag'lar jalb qilindi. Bu 2024-yilning mos davriga nisbatan (40,3 trln. so'm) 20 foizga, hududlarda hattoki 25 foiz o'sishga erishildi. Bunda asosiy ulush foyda solig'i – 11,8 trln. so'm, QQS – 9,8 trln. so'm, aksiz solig'i – 4,5 trln. so'm va boshqalar.

Mamlakatimizda davlat budjeti daromadlari barqarorligiga erishishda soliq nazorati samaradorligini oshirish, soliq qonunchiligining buzilishini keskin kamaytirish va soliq organlari xodimlarining nazoratni qonuniy amalga oshirishlarini ta'minlash borasidagi amalga oshirilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa va takliflar.

Soliq nazorati muayyan tashkiliy-huquqiy mexanizm bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, maxsus davlat organlari soliq qonunchiligi normalarida belgilangan majburiyatlarni bajarish jarayonini, shuningdek soliq qarzlarni majburiy undirish yoki sodir etilgan soliq huquqbuzarligi uchun javobgarlik choralarini qo'llash faktlarini o'rganish va aniqlashni ta'minlaydi.

Zamonaviy sharoitda davlat moliyasining barqarorligini ta'minlash uchun mustahkam moliyaviy bazani yaratish, soliq sohasidagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, barcha darajadagi budjetlarni o'z vaqtida va to'liq shakllantirish, davlatning moliyaviy manfaatlarini ta'minlash jarayonini samarali soliq nazorati tizimisiz amalga oshirish mumkin emas.

Soliq nazoratini tashkil etishning samarali tizimi davlat moliyasini boshqarishning muhim elementi hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, barcha darajadagi budjetlarning daromad qismini shakllantirish

jarayoni bilan bog'liq. Soliq nazorati chora-tadbirlari soliqqa tortishning butun tizimini qamrab oladi, budjetga majburiy soliq to'lovlari va yig'implari o'z vaqtida va to'liq tushishini ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtda soliq tekshiruvlari soliq nazoratining asosiy shakli hisoblanadi. Bundan tashqari, ular soliq nazoratining boshqa turlari va shakllariga nisbatan eng samarali hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish axborot texnologiyalarini, ayniqsa, soliqqa tortish sohasida keng joriy etishni talab qildi. Bundan tashqari, iqtisodiy rivojlanish jarayonlari soliq munosabatlarini doimiy monitoring qilish va takomillashtirishni talab qiladi. Raqamli texnologiyalarning tarqalishi iqtisodiy faoliyatning ko'plab turlarini, jumladan soliqqa tortish tizimining takomillashishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Fikrimizcha, soliq nazorati mexanizmini takomillashtirish soliq nazoratining ishonchli va dolzarb axborot bazasini shakllantirish maqsadida amalga oshirilishi kerak. Aynan to'g'ri ma'lumotlarni olish soliq tekshiruvlari samaradorligini oshirishning muhim bosqichidir. Bu jarayonda soliq nazorati samaradorligining muhim sharti soliq to'lovchilarni hisobga olish bilan bog'liq ishlarni optimallashtirishdir. Soliq organlari har bir soliq to'lovchi haqida aniq, to'liq va tushunarli ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, soliq nazoratini takomillashtirish bo'yicha yuqoridagi takliflarni qo'llash soliq organlari tomonidan soliq nazorati doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligi oshiradi, bu kelajakda soliq organlari faoliyatini takomillashtirishga va pirovardida davlat budjetiga soliq tushumlarini ko'paytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 10 b.

2. Мухина Е.Р. Основы налогового контроля // Международный научно-исследовательский журнал. 2014. № 8 (27). Ч. 2. С. 47-48.
3. Алиев Г.Х. Налоговый контроль и оценка его эффективности на современном этапе: дисс. канд. экон. наук, М., 2004.
4. Налоги и налоговое право / под ред. А.В. Брызгалина. М., 1997. 409 с.
5. Налоги и налогообложение / под ред. М.В. Романовского, О.В. Врублевской. СПб., 2007.
6. Лобанов А.В. Пути повышения эффективности налогового контроля на современном этапе налоговой реформы: Автореф. канд. экон. наук. М., 2009. 17 с.
7. Isayev F. (2023) Soliq tekshiruvlari: audit samaradorligi tahlili //Economics and Innovative Technologies. –T. 11. –No. 1. –S. 394-401.
8. Mamajonov L.A. et al. (2024) Soliq nazorati samaradorligini oshirish //Science Promotion. – T. 10. –No. 1. –S. 413-416.
9. Jamalov X., Xudoyqulov S. (2023) Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarning yangi tizimi sharoitida soliq nazorati // Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. –Т. 3. –No. 5. –S. 112-118.
10. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). 2020-yil 1-yanvar. <https://lex.uz/docs/4674902#4679148>
11. Fuqarolar uchun budget: 2024-yil ijrosi. https://api.mf.uz/media/document_files/%D1%81%D0%B0%D0%B9%D1%82%D0%B3%D0%B0_2025.pdf